

**BOLALARDA ANEMIYALARING KECHISH
XUSUSIYATLARI VA GEMORRAGIK DIATEZLAR**

Abdiraxmonova Oltinoy Jumaboevna

Olmaliq Abu Ali ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi

Onalikda va bolalarda hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar orasida uchraydigan anemiyalarning asosiy klinik xususiyatlari, ularning kechish shakllari, diagnostika va davolash yondashuvlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, gemorragik diatezlarning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va ularni farqlash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy pediatriya yutuqlari asosida anemiyalar va gemorragik diatezlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda davolashda qo‘llanilayotgan zamonaviy usullar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: anemiya bolalar patologiyasi gemorragik diatez qon ketishlar gematologiya zamonaviy davolash

Kirish

Bolalar organizmi o‘sish va rivojlanish davrida bo‘lganligi sababli turli xil patologik holatlarga nisbatan sezuvchan hisoblanadi. Anemiya va gemorragik diatezlar – bolalarda tez-tez uchraydigan gematologik buzilishlar bo‘lib, ular nafaqat jismoniy holatga, balki intellektual rivojlanishga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Anemiya bu – gemoglobin miqdorining normadan past bo‘lishi bilan xarakterlanadigan holat bo‘lib, u ko‘plab sabablar natijasida yuzaga keladi. Gemorragik diatezlar esa, qon ivish tizimining buzilishi oqibatida qon ketishlar bilan namoyon bo‘ladigan holat bo‘lib, ko‘pincha irsiy yoki orttirilgan shakllarda kechadi. Bugungi kunda pediatriyada bu kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bolalarda anemiya ko‘pincha temir tanqisligi anemiyasi shaklida uchraydi. Ushbu holatga noto‘g‘ri ovqatlanish, tug‘ma yoki orttirilgan ichak kasalliklari, surunkali qon ketishlar sabab bo‘ladi. Klinik belgilari orasida terining oqarishi, tez charchash, ishtahaning pasayishi, tez-tez kasallanishlar, o‘qishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Diagnostikada umumiyligi qon tahlili, temir moddasining zaxirasini aniqlovchi biokimyoiy testlar va gemoglobin darajasini baholovchi tahlillar muhim o‘rin tutadi.

Davolashda temir preparatlari, ratsional ovqatlanish, muqobil davolash usullari qo‘llaniladi. O‘ta og‘ir shakllarda esa qon quyish yoki parenteral preparatlar berish tavsiya etiladi.

Bolalar organizmida qon yaratish tizimi yetarlicha shakllanmagan bo‘lib, har qanday omil ta’sirida oson izdan chiqishi mumkin. Bu ayniqsa hayotining dastlabki yillarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Temir moddasining tanqisligi, avvalo, chaqaloq

davridayoq ko‘zga tashlanishi mumkin, ayniqsa onaning homiladorlik paytidagi temir tanqisligi, erta tug‘ruq, sun’iy ovqatlantirish, ichakdagi so‘rilish buzilishlari bularning sababi bo‘ladi. Ko‘p hollarda temir tanqisligi anemiyasi o‘z vaqtida aniqlanmasa, rivojlanishdagi kechikishlarga olib keladi.

So‘nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, anemiya bo‘lgan bolalarda markaziy asab tizimi, yurak-qon tomir, nafas olish va immun tizimlari faoliyatida doimiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi sekinlashadi, mакtabda o‘zlashtirishi sustlashadi, diqqat-e’tibor buziladi. Bu holatni faqat laborator ko‘rsatkichlar emas, balki psixologik testlar orqali ham aniqlash mumkin.

Dunyo sog‘lijni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, har bir bola hayotining ilk ikki yilida anemiya uchun skriningdan o‘tkazilishi zarur. Chunki bu davrda gemoglobin yetishmovchiligi jiddiy intellektual va nevrologik o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Xususan, gemoglobin darajasi 100 g/l dan past bo‘lgan bolalarda nutq va harakat rivojlanishida sezilarli orqalanish qayd etilgan.

Gemorragik diatezlar bilan bog‘liq patologiyalar bolalar orasida kam uchraydi, biroq ular jiddiy xavf tug‘diradi. Ayniqsa, gemofiliya A (faktor VIII yetishmovchiligi) va gemofiliya B (faktor IX yetishmovchiligi) og‘ir shaklda kechib, bola hayotining barcha bosqichlarida doimiy nazoratni talab qiladi. Ushbu kasallikkarda eng muhim muammo – ichki qon ketishlar bo‘lib, ayniqsa bo‘g‘imlar va mushaklarga qon quylishi og‘riq, harakatchanlikning buzilishi va nogironlikka olib kelishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – qon ketishlarning ko‘pchiligi oddiy mexanik shikastlardan so‘ng yuzaga keladi. Bola yiqilganda, og‘iz bo‘shlig‘ida mayda yaralar paydo bo‘lganda yoki hatto tish chiqish davrida ham qon ketish bir necha soat davom etishi mumkin. Bu holatlarda ota-onalar tezkor ravishda shifokorga murojaat qilishi lozim.

Verlgof kasalligi bo‘lgan bolalarda esa immun tizimi o‘z trombotsitlarini yot hujayra sifatida qabul qilib, yo‘q qilishni boshlaydi. Bu holat odatda virusli infeksiyalardan so‘ng paydo bo‘ladi va o‘tkir shaklda kechadi. Davolashda kortikosteroidlar, immunoglobulinlar va kam hollarda splenektomiya (taloqni olib tashlash) qo‘llaniladi.

Zamonaviy gematologiyada ushbu kasalliklar uchun yangi davolash vositalari – gen terapiyasi, rekombinant koagulopatik dori vositalari, uzoq ta’sir qiluvchi faktorlar ishlab chiqilgan. Bular tufayli gemofiliya bilan yashovchi bolalar ilgari faqat uyda davolanadigan bo‘lsa, hozirda ular maktabga borib, jismoniy faollik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, bolalarda anemiya va qon ketish holatlari ba’zida boshqa kasalliklarning birinchi belgisi sifatida ham yuzaga chiqadi. Masalan, leykoz, suyak iligi displaziysi, yallig‘lanishli autoimmun kasallikkarda gematologik buzilishlar dastlabki simptomlar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli, anemiya yoki

diatez belgilari bilan murojaat qilgan har bir bemorda chuqur differensial diagnostika o‘tkazilishi talab etiladi.

Mamlakatimizda bolalar sog‘ligini muhofaza qilishga doir milliy dasturlar doirasida anemiya va qon kasalliklarini erta aniqlash, bolalarni tug‘ruqdan keyingi davrda muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, temir va vitamin qo‘shimchalarini profilaktika maqsadida berish amaliyoti kengaymoqda. Shuningdek, gemofiliya bilan tug‘ilgan bolalarga ixtisoslashtirilgan markazlarda sifatli va bepul tibbiy yordam ko‘rsatilmoqda.

Gemorragik diatezlar esa ko‘proq gemofiliya, Verlgof kasalligi va boshqa trombotsitopatiya hamda koagulopatiya shakllarida uchraydi. Klinik jihatdan bu kasalliklar ko‘karishlar, burundan qon ketishi, bo‘g‘imlarga qon quyilishi va uzoq davom etuvchi qon ketishlar bilan namoyon bo‘ladi. Diagnostikada trombotsitlar soni, qonning ivish vaqtini, protrombin indeksi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi.

Gemorragik diatezlarni davolashda etishmayotgan ivish faktorlarini o‘rnini bosuvchi preparatlar, gemostatik vositalar, plazma quyish, simptomatik terapiya qo‘llaniladi. Irsiy shakllarda esa genetik maslahat va uzoq muddatli kuzatuv muhim hisoblanadi.

Anemiyalarning turlari va kechish xususiyatlari

Bolalarda uchraydigan anemiyalar etiologiyasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Temir tanqisligi anemiyasi – eng ko‘p uchraydigan tur bo‘lib, asosan noto‘g‘ri ovqatlanish, tez o‘sish, surunkali infeksiyalar yoki parazitlar sababli rivojlanadi.
- B12 va folat tanqisligi anemiyasi – bu holat vitaminlar yetishmovchiligi sababli DNK sintezi buzilishidan kelib chiqadi. Odatda oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi.
- Gemolitik anemiya – eritrotsitlarning hayot aylanishi normadan tezroq tugashi bilan bog‘liq. Irsiy sferotsitoz, talassemiya yoki avtoimmun gemolitik anemiyalar bunga misol bo‘ladi.
- Aplastik anemiya – suyak iligida qon hujayralarining ishlab chiqilishi pasaygan bo‘ladi. Bu o‘ta og‘ir, kam uchraydigan, ammo xavfli shakldir.

Har bir tur o‘ziga xos klinik belgilari bilan kechadi. Temir tanqisligida – terining oqarishi, lab va og‘iz burchaklarida yoriqlar, tirmoqlarning mo‘rtlashuvi, ishtahaning yo‘qolishi; gemolitik anemiyada – terining sarg‘ayishi, taloq kattalashuvi, siyidik rangining to‘q bo‘lishi kuzatiladi. B12 yetishmovchiligi fonida esa nevrologik belgilar (koordinatsiya buzilishi, paresteziya) paydo bo‘lishi mumkin.

Gemorragik diatezlarning shakllari va kechishi

Gemorragik diatezlar tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Tug‘ma diatezlarga gemofiliya A va B, von Villebrand kasalligi kiradi. Bu holatlarda organizmda muayyan ivish faktorlarining yetishmasligi natijasida qon ketishlar tez-tez

va uzoq davom etadi. Ayniqsa, bo‘g‘im ichiga qon quyilishi – gemartrozlar og‘riq va harakat cheklanishi bilan kechadi.

Orttirilgan gemorragik diatezlar esa infeksiyalar, dorilar ta’siri, jigar kasalliklari yoki immun tizimi buzilishlari natijasida rivojlanadi. Verlgof kasalligi (idiopatik trombotsitopenik purpura) – immun tizimi tomonidan trombotsitlar yo‘q qilinishi oqibatida yuzaga keladi. Kasallik ko‘karishlar, milk qonashlari, burundan qon ketish, qizlar va ayollarda uzoq davom etuvchi hayz qonashlari bilan namoyon bo‘ladi.

Diagnostika va zamonaviy davolash yondashuvlari

Anemiyani aniqlashda umumiy qon tahlili asosiy ahamiyatga ega. Eritrotsitlar soni, gemoglobin miqdori, gematokrit ko‘rsatkichi, eritrotsitlarning o‘rtacha hajmi (MCV), temir va ferretin darajalari aniqlanadi. B12 yetishmovchiligidagi megaloblastik qon manzarasi, gemolitik anemiyada esa yuqori darajadagi retikulositoz aniqlanadi.

Gemorragik diatezlarda esa trombotsitlar soni, protrombin va trombin vaqtini, aktivlashtirilgan qisman tromboplastin vaqtini (APTT), fibrinogen darajasi baholanadi. Genetik testlar tug‘ma holatlarni tasdiqlashda qo‘llaniladi.

Davolash usullari:

- Temir tanqisligi anemiyasida peroral yoki parenteral temir preparatlari beriladi.
- B12 va folat yetishmovchiligidagi – vitamin B12 (sianokobalamin) in’eksiyalari, folat qo‘sishchalari buyuriladi.
- Gemolitik anemiyada esa asosiy sababga qarab glukokortikoidlar, immunosupressorlar yoki splenektomiya tavsiya qilinadi.
- Gemorragik diatezlarda muayyan ivish faktorlarini o‘z ichiga olgan preparatlar (masalan, gemofiliya Ada – faktor VIII konsentratlari), plazma infuziyasi, traneksamik kislota va boshqa gemostatiklar qo‘llaniladi.

Shuningdek, pediatriyada ushbu holatlarning oldini olish maqsadida emlash, gigiyena qoidalariiga rioxalish, to‘g‘ri ovqatlanish va ota-onalarni doimiy xabardor qilib borish muhimdir.

Bolalar organizmida anemiyalar ko‘p hollarda sekin rivojlanadi va dastlabki bosqichlarda aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar va tibbiy xodimlar bolaning umumiy holatidagi mayda o‘zgarishlarga e’tiborli bo‘lishlari zarur. Bola tez charchasa, ko‘p uxlasa, matabda yoki bog‘chada faolligi pasaysa, bu holatlarning orqasida anemiya yotgan bo‘lishi mumkin. Temir tanqisligi fonida markaziy asab tizimi faoliyati susayadi, bu esa bola fikrlashining sekinlashuvi, e’tibor va xotiraning zaiflashuvi bilan namoyon bo‘ladi.

Anemiya bilan og‘rigan bolalarda immunitet pasayishi natijasida tez-tez shamollash, uzoq davom etuvchi bronxit, angina va pnevmoniylar kuzatiladi. Uzoq muddat davolanmasa, yurak mushaklariga ortiqcha yuk tushadi, bu esa yurakning kompensator kengayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois anemiyani faqat gemitologik muammo emas, balki umumiy salomatlikka tahdid soluvchi holat deb baholash lozim.

Gemorragik diatezlar esa bola organizmida kichik travmalardan so‘ng ham noma’qul qon ketishlar bilan kechishi, bu esa og‘ir asoratlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, bosh miya sohasiga yoki ichki organlarga qon quyilishi hayot uchun xavfli holat hisoblanadi. Ba’zi tug‘ma diatezlarda, masalan gemofiliyaga ega bo‘lgan bolalarda, doimiy profilaktik muolajalar talab qilinadi. Bu bolalarning hayot sifati dori vositalariga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Davolashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan erta tashxis qo‘yilishiga, to‘g‘ri davolash rejimiga va bolaning turmush tarziga amal qilishga bog‘liq. Ratsional ovqatlanish, vitaminlar va mikroelementlarga boy parhez, infeksiyalardan himoya, jismoniy zo‘riqishdan saqlanish kabi omillar davolashni samarali qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy biologik preparatlar, rekombinant ivish faktorlarini o‘z ichiga olgan dori vositalari, gen terapiyasiga asoslangan yondashuvlar orqali gemorragik diatezlar nazorat ostida saqlanmoqda. Shu bilan birga, bolalarda anemiyalarni davolashda yangi temir birikmalarining o‘zlashtirilishi yuqori bo‘lgan shakllari, gepcidin modulyatorlari kabi yangi dori vositalari klinik amaliyotga joriy qilinmoqda.

Tibbiy amaliyotda har bir bola individual yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun pediatr, gematolog, dietolog va boshqa mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlik kasalliklarni muvaffaqiyatli davolashning kalitidir. Ota-onalar bu kasalliklar haqida yetarli bilimga ega bo‘lishi, davolash va profilaktika choralarini bajara olishi kerak. Kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, zamonaviy tahlillarni o‘z vaqtida o‘tkazish, doimiy monitoring – bu bolalar salomatligini asrashdagi eng muhim omillardir.

Xulosa

Anemiyalar va gemorragik diatezlar bolalar sog‘lig‘iga jiddiy tahdid soluvchi patologiyalar sirasiga kiradi. Ularni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va zamonaviy davolash usullarini qo‘llash orqali kasallikning og‘ir asoratlarini oldini olish mumkin. Pediatrik amaliyotda bu kasalliklarga nisbatan doimiy nazorat, ota-onalarni xabardor qilish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi. Pediatriyada zamonaviy yondashuvlar. Toshkent, 2023.
2. WHO. Anaemia in children: prevalence, causes and interventions. Geneva, 2021.
3. Gofman A.V., Deti i gematologiya: diagnostika i lechenie. Moskva, 2020.
4. Nelson Textbook of Pediatrics, 21st Edition. Elsevier, 2020.
5. Mo‘minova D. Temir tanqisligi anemiyasi: zamonaviy ko‘rinishlar va davolash. "Tibbiyot" jurnali, 2022.